

ABDULLA SHERNING PUBLITSISTIK FAOLIYATI VA UNING AHAMIYATI

Xamroyeva Dilnoza Jumanazarovna

Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

d.j.xamroyeva@buxdu.uz

Annotatsiya:

Abdulla Sher serqirra ijodkordir. U o'zbek adabiyotida shoir, olim, publitsist, tarjimon sifatida tanildi. Uning publitsistikaga kirib kelishi, bu sohada ham yuksak o'rinni egallagani, davriy nashrlar bilan bog'liq faoliyati, o'tkir publitsistik maqolalari haqida ushbu maqolada so'z boradi.

Kalit so'zlar: Publitsistika, sonet, maqola, xotira maqola, gazeta, jurnal, matbuot, bosh maqola, nazariy maqola, targ'ibot maqola, muammoli maqola.

Abdulla Sherni ko'p qirrali ijodkor deya olamiz. U bir vaqtning o'zida olim, shoir, publitsist, tarjimonlik rutbalaridan o'rin oldi. Abdulla Sher mohir publitsistdir. U uzoq yillar "Yosh fizkulturchi" gazetasi, "Guliston", "Yoshlik" jurnallarida faoliyat olib bordi. Abdulla Sher ham ijodini bevosita badiiy publitsistika bilan bog'ladi. "Yoshlik" jurnalida mas'ul kotib bo'lib ishladi. "Yoshlik" jurnalining tashkil etilishini shoir shunday eslaydi: "Erkin aka bilan biz 1982-yili rahmatli Sarvar Azimovning topshirig'i bilan "Yoshlik" jurnalini tashkil etdik. U kishi – bosh muharrir, men – mas'ul kotib. Erkin aka kadrlar masalasini menga topshirdi. Men bir paytlar o'zim ishlagan afsonaviy "Guliston" jurnalining sobiq xodimlarini yig'dim: Sa'dulla Siyoyev, Erkin A'zam, Xayriddin Sulton, Sulaymon Rahmon..."¹ Uning adabiyotdagi yutuqlarida Mirtemir, Asqad Muxtor, Sarvar Azimov kabi ijodkorlarning o'rni beqiyos bo'lgan. Abdulla Sher Shukur Xolmirzyev, Safar Barnoyev, Ma'ruf Jalil, Tilak Jo'ra, Omon Muxtor, Otayor, Xayriddin Sulton, Erkin A'zam, Sa'dulla Siyoyev, Sulaymon Rahmon kabi ijodkorlar bilan bir vaqtda adabiyotga kirib keldi.

U ijodni maktab davrlaridanoq boshladi. O'quvchilik kezaridayoq kichkina maqolalar yozishni boshladi. "Uning maqolachalari asosan, dala mehnatkashlariga bag'ishlangan bo'lib, "Boltavoy – mirishkor suvchi", "Norxol pillachi", "G'o'za qator oralariga mahalliy o'g'it tashlash boshlandi" kabi mavzularda edi. Unga 40 tiyin yoki 50 tiyin qalam haqi ham berishardi. 1968-yilga kelib, u she'r yoza boshladi"². Dastlabki she'ri tuman gazetasida bosilgach, birin-ketin she'riy to'plamlari yaratildi.

¹ https://t.me/yozyuvchilar_uz

² <https://uzhurriyat.uz/2024/02/28/hassasi-gullagan-shoir/>

Publitsistika sohasi bo'yicha bir qator olimlar ilmiy faoliyat olib borgan. Y. Jurbina³, A. Grechnev⁴, T. Ernazarov⁵, I. Mirzayeva⁶ va boshqalar faoliyatida badiiy publitsistika sohasida qilingan bir qancha ilmiy ishlarni ko'rishimiz mumkin. O'zbek publitsistikasining shakllanish bosqichiga e'tibor qaratilsa, bu matbuot vujudga kelgan vaqtlarga to'g'ri keladi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida ziyolilar tomonidan vaqtli matbuot nashrlari vujudga keldi va maqola ko'rinishidagi matnlar bosila boshladi. Ammo O. Tog'ayev⁷ bunday fikrdan chekinib, Sharq publitsistikasi uzoq tarixga ega ekanligini ta'kidlab, Kaykavusning "Qobusnoma", Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub", "Munshaot", "Majolis un-nafois" kabi asrlarni misol tariqasida keltiradi va bu asarlarda maqola, ocherk va satiraning ayrim ko'rinishlari borligini ta'kidlaydi.

Umuman olganda, publitsistikada tuyg'ularga kuchli ta'sir ko'rsata oladigan vosita obrazlilikdir. Ammo hamma vaqt ham bunday emas. Unda ba'zan ifoda obrazi, ya'ni so'z obrazi mavjud bo'ladi. Abdulla Sher o'zbek adabiyoti rivoji uchun publitsistika sohasida ham iste'dodini sinab ko'rdi. Uning uzoq yillar vatqli matbuot nashrlarida faoliyat olib borgan bundan dalolat beradi. Uning maqolalarida shoirning o'tkir tafakkuri sezilib turadi. Jumladan, "Sonet sirlari" yoki Mirtemir va Asqad Muxtor haqidagi xotira maqolalari fikrimizning yorqin dalilidir. Jumladan, "Sonet sirlari" maqolasida publitsist ushbu janrni faqat 14 qatordan iborat she'r emas, balki yuksak mahorat talab etiladigan she'riy shakl ekanligini ta'kidlaydi. Adabiyotshunos olim D. Qur'onov "Adabiyotshunoslik lug'ati"da sonetga shunday ta'rif beradi: "Sonet – qat'iy she'r shakllaridan biri, shakl xususiyatiga ko'ra tasnif etiluvchi lirik janr. Sonet o'n to'rt misradan tarkib topib, ikkita katren va ikkita tertsetni o'z ichiga oladi"⁸. Sonet janri tarixiga e'tibor qaratsak, XIII asrda vujudga kelgan ushbu janrning birinchi bandida fikr aytiladi. Ikkinchi bandda fikr rivojlantirilgach, uchinchi bandda yechim va to'rtinchi bandda xotima beriladi. Ushbu janrning rivojlanishida Petrarkaning o'rni beqiyos. Sonetning go'zal namunalari Dante, Ronsar, Shekspir, Gyote, rus adabiyotidan Pushkin, Lermontov, A. Axmatovalar ijodida o'zbek she'riyatiga esa o'tgan asrning 30-yillarida kirib kelgan bo'lib, U. Nosir, B. Boyqobilov, Rauf Parfi va boshqalar ijodida uchraydi.

Abdulla Sher o'z maqolasida sonetning bir qancha jihatlarini ochadi. Jumladan, sonet nima, bu janr bilan kimlar shug'ullangan, uning tarixi qanaqa, sonet va sonet bo'lmagan, faqatgina shaklan o'xshash turlar haqida o'z kifrlarini aytib o'tadi. Maqolada keltirilishicha, ba'zi ijodkorlar ijodida orasida sonet qonun-qoidalarining buzilishi kuzatilgan. Bu ayniqsa, ingliz adabiyotida kuzatiladi. Chunki inglizlar har qanday kichik hajmli she'rni sonet deb atagan. Ko'rinadiki, ular ataylab janr qoidalarini buzishga harakat qilmaydi, balki Angliyada "har

³ Е. Журбина, Теория и практика художественно-публицистических Жанров, М., 1969.

⁴ В. Гречнев, Жанр литературного портрета в творчестве М. Горького, М., 1964

⁵ Т. Эрнazarov, Туркистонда вақтли матбуот. – Т.: 1959.

⁶ Мирзаева И. Бадий очеркнинг баъзи масалалари. – Т.: Фан, 1964.

⁷ О. Тоғаев. Ўзбек бадий публицистикаси. – Т.: Фан, 1973. – Б.5.

⁸ Курунов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик лугати. – Т.: Академнашр, 2010. – Б.279.

qanday she'r (agar u kichik bo'lsa) sonet deb atalishi mumkin bo'lgan"⁹. U faqatgina sonet hajmiga taqlid bo'lgan. Shoir "G'azalning shakliy qonun-qoidalarini buzib bo'lmaganidek, sonet shaklini ham buzish mumkin emas"¹⁰, deya ta'kidlaydi. Abdulla Sher fikricha sonet qonun qoidalariga rioya qilib yaratilgan asarlar U.Nosir va A.Fraynberg ijodida uchraydi. Maqolada Abdulla Sher taxminiy fikrlarni ham keltirib, sonet g'azalga taqdidan yaratilgan bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi. Haqiqatda ham, g'azal aksar hollarda 7 baytdan iborat bo'lgan, ya'ni o'n to'rt misra. An'anaviy boshlanma –matla' va xotima – maqta'ga va qofiyalanish tizimiga ega bo'lgan. Ushbu qonun-qoidalar buzilsa, uni g'azal deya olmaganimizdek, har qanday o'n to'rt qatorli she'r sonet bo'la olmasligi ta'kidlanadi. "Bu borada atoqli olmon shoiri Yoxannes Bexerning "Sonet falsafasi yoxud sonet borasida kichik yo'riqnoma" maqolasida qat'iy qonun asosida yaratilmagan barcha sonetlarni inkor etib, ularni "o'n to'rt satrli shig'irlar", deb ataydi va ularni sonetga hech qanday aloqasi yo'q, degan qat'iy xulosaga keladi"¹¹. Abdulla Sher maqolada sonetning "Sonetlar gulto'ji" ("Sonetlar gulchambari" kabi murakkab turi haqida ham ma'lumot beradi.

Umuman olganda, ijodkor nafaqat o'zbek, balki jahon adabiyotida sonet janri rivojining asosiy bosqichlari asosli ko'rsatib berdi. Sonet ilmining barcha nozik sirlaridan xabardor bo'lgan Abdulla Sher maqolada dalillarga to'la kuzatishlari orqali sonetshunoslik ilmi rivojiga munosib hissa qo'shdi.

Bundan tashqari, Abdulla Sherning Asqad Muxtor va Mirtemirga bag'ishlangan xotira maqolalari ham mavjud bo'lib, ular xuddi she'rday bir nafasda o'qiladi. "Jannatmakon shoir" va "Majnuntol tagiga o'tkazing meni" sarlavhalariga ega bu ikki maqolada ulug' ijodkorlar haqida shoir fikrlari keltiriladi. Bunday xotira maqolalar adabiyotimizda ko'p uchraydi. Aksar hollarda ularni "zamondoshlar xotirasida" turkumi ostida kitob holida bosishadi. Masalan, "Zulfiya zamondoshlari xotirasida", "Muhammad Yusuf zamondoshlari xotirasida" kabi. Ammo xotira tarzidagi maqolalar publitistik tomondan yondashilsa, biroz erkin holda yoziladi. Unda ijodkor bor his-tuyg'ularini to'kib-sochadi. "Jannatmakon shoir" maqolasida ham Abdulla Sher Asqad Muxtorning o'quvchiga noma'lum insoniylik fazilatlarini ko'rsatadi. Chin adabiyot insoniga o'z hurmatini bildiradi. Uning bu ikki xotira maqolasi juda ahamiyatlidir. Chunki ularda Abdulla Sherning adabiyotga kirib kelishi, ildiz otishi va yuksalish bosqichlariga turtki bo'lgan ikki inson eslanadi. Shundan kelib chiqib shoirning dostonlarini yoki she'rlarini oqir ekanmiz, undan "Surat"ning ifori, paxta davrlarida cho'ntagida saqlagan "99 miniatura"ning ohangi kelayotganday tuyuladi.

Aslida maqola publitistikaning janri bo'lib, matbuot sohasida bosh maqola, nazariy va targ'ibot maqola, muammoli maqola kabi turlaridan foydalaniladi. Ular mavzu jihatdan rang-barangligi ma'lum. Ammo adabiyotimizda xotira maqolalar ham salmoqli o'rinni egallaydi.

⁹ Abdulla Sher. Sonet sirlar. Maqola. – T.: O'zbekiston adabiyoti va san'ati gazetasi. 2009//43-son.

¹⁰ Abdulla Sher. Sonet sirlar. Maqola. – T.: O'zbekiston adabiyoti va san'ati gazetasi. 2009//43-son.

¹¹ Abdulla Sher. Sonet sirlar. Maqola. – T.: O'zbekiston adabiyoti va san'ati gazetasi. 2009//43-son.

Abdulla Sher o'zining publitsistik faoliyatida yuksak cho'qqiga ko'tarildi. Yuqorida qayd etganlarimiz buning yaqqol isbotidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Sher. Sonet sirlar. Maqola. – T.: O'zbekiston adabiyoti va san'ati gazetasi. 2009//43-son.
2. Эрназаров Т. – Туркистонда вақтли матбуот. – Т.: 1959.
3. Гречнев В. – Жанр литературного портрета в творчестве М. Горького, М., 1964
4. Журбина Е. – Теория и практика художественно-публицистических Жанров, М., 1969.
5. Мирзаева И Бадий очеркнинг баъзи масалалари. – Т.: Фан, 1964.
6. Тоғаев О. Ўзбек бадий публицистикаси. – Т.: Фан, 1973. – Б.5.
7. Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Академнашр, 2010. – Б.279.
8. https://t.me/yozuvchilar_uz
9. <https://uzhurriyat.uz/2024/02/28/hassasi-gullagan-shoir/>